

KASALLIKLAR VA ULARNING RIVOJLANISH SABABLARI

Ergasheva Iroda Akbarali qiz**Axmedova Yulduz Mamiraliyevna****Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi****Jamoat salomatligi texnikumi**

Anotatsiya: bu maqolada kasallik, uning mohiyati, hamda organizimga ta'siri va kelib chiqish sabablari xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: kasallik, mikroorganizmlar, latent, o'tkir, o'rtacha o'tkir, surunkali tur, patogenez.

Аннотация: В этой статье дается представление о заболевании, его природе, а также о влиянии на организм и причинах возникновения.

Ключевые слова: болезнь, микроорганизмы, скрытый, острый, умеренно острый, хронический тип, патогенез.

Annotation: this article gives ideas about the disease, its essence, as well as its effect on my organism and the reasons for its origin.

Keywords: disease, microorganisms, latent, acute, moderate acute, chronic type, pathogenesis.

KIRISH

Kasallik, betoblik, xastalik — organizmga tashqi yoki ichki muhitning zararli omillari ta'sir etganda ro'y beradigan patologik jarayon. Kasallik haqidagi tushuncha tibbiyot tarixida o'zgarib bordi. Kasallikning paydo bo'lishida tashqi muhit omillari yetakchi rol o'ynaydi, chunki ular organizmga bevosita ta'sir etish bilan birga uning ichki xususiyatlarini ham o'zgartira oladi, bu o'zgarishlar nasldan-naslga o'tib, unda Kasallikni yuzaga keltirishi mumkin. Kasallik, ko'pincha, haddan tashqari kuchli ta'sirotlar, turli mikroorganizmlar, zaharlar ta'sirida vujudga keladi. Bunda organizmning tashqi muhitga moslashuvi susayib, uning muhit bilan o'zaro muvozanati buziladi. Organizmning rivojlanish nuqsonlari yoki irsiy kamchiliklar ham

kasallikka sabab bo‘lish mumkin. Masalan, muayyan kasalliklar, xususan, allergik kasalliklarga ba’zan tug‘ilishdan moyillik bo‘ladi (qarang Allergiya). Kasallik paydo qiladigan agent organizmga ta’sir etib, uni zararlantiradi, ayni chog‘da bu agent organizmning himoya choralari va moslanish reaksiyalari safarbar bo‘lishiga olib keladi. Demak, kasallik, odatda, bir-biriga aloqador ikki jarayonning — zararlanish va unga qarshi himoyalanish jarayonining birga kelishi bilan ifodalanadi. Har bir kasallik umuman butun organizm hayot faoliyatining buzilishiga olib keladi, lekin ko‘pgina kasalliklarda dardning badandagi o‘rni, shuningdek, ma’lum bir a’zo yoki sistemaning ko‘proq zararlanganini ko‘rsatadigan belgilar aniq ko‘rinib turadi. Masalan, me’dada yara borligi butun organizmning umumiyligi — yara kasalligini mahalliy belgisi bo‘lishi mumkin, yara kasalligi ko‘pincha nerv sistemasi funksiyasining jismoniy yoki aqliy ishda haddan tashqari zo‘riqishi, noxush xrdisalarni boshdan kechirish tufayli buzilishidan kelib chiqadi. Aksincha, faqat ma’lum bir joyni shikastlaydigan har qanday ta’sirot, albatta, qanday bo‘lmisin umumiyligi hodisalarga sabab bo‘ladi. Masalan, badanning biror joyiga chipqon chiqsa, odam isitmalab, lanj bo‘lib yurishi, ishtahasi yo‘qolishi ma’lum va boshqa holatlar.

ASOSIY QISM

Kasallikning paydo bo‘lish sabablari juda xilma-xil. U bitta omilning ta’siridan yoki bir qancha sharoitlarning birga qo‘shilishidan kelib chiqishi mumkin. Masalan, infektion va parazitar kasalliklar organizmga ma’lum bir turdagи mikroorganizmlar va parazitlar ta’siridan, boshqalari esa bir qancha sabablarning birgalashib ta’sir etishidan kelib chiqadi (me’da shilliq qavatining yallig‘lanishi — gastrit, odatda, tartibsiz ovqatlanish, kundalik rejimga rioya qilmaslik, chekish, ichkilik ichish, shuningdek, boshqa a’zolarning kasalliklari oqibatida paydo bo‘ladi). Kasallikni aniqlashda uning vujudga kelish sabablari (etiologiyasi), kasallik jarayonining rivojlanish mexanizmi (patogenezi), klinik ko‘rinishi (belgilari yoki simptomlari) va h. k.larga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Kasallikning sodir bo‘lishi va o’tishida organizmning himoya kuchlari va moslanish imkoniyatlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Kasallikning o'tkir, o'rtacha o'tkir va surunkali xillari bo'ladi. Kasallikning o'tishida 4 bosqich yoki davr: yashirin (latent), prodromal (dastlabki), avj olish va tuzalish davri tafovut qilinadi. Birok, ko'pgina Kasalliklarning avj olishi va o'tishida bunday davrlarni ro'yirost ajratib bo'lmaydi.

Kasallikning yashirin davri (infektion kasalliklarda bu davr inkubatsion davr deb ataladi) zararlovchi agent ta'sir etgandan boshlab to dardning dastlabki belgilari paydo bo'lguncha davom etadi; bu davr bir necha lahzadan (shikastlanishda) bir necha yilgacha bo'lishi mumkin.

Prodromal davr Kasallikning ilk belgilari paydo bo'lgandan boshlab to u ro'yirost avj olguncha o'tadigan vaqtini o'z ichiga oladi. Bu davrda, odatda, talaygina Kasalliklarga xos bo'lgan bosh og'rig'i, qaltirash, isitmalash, lanj bo'lish va boshqa boshlanadi. Xullas, bu davrda odamning dardga chalingani aniq bo'ladi-yu, lekin qanday Kasallik bilan og'riganligini bilib bo'lmaydi. Kasallikka aniq tashhis qo'yish uchun harakterli bo'lgan belgilar ko'pincha bu davrning oxirida, Kasallik rasmana avj olgan paytda ko'zga tashlanadi, lekin ayrim hollarda bular notayin bo'ladi (Kasallikning bilinmaydigan shakli) yoki uncha avjiga chiqmasdan yo'qolib ketadi (Kasallikning abortiv shakli). Biroq, Kasallik juda tipik bo'lib o'tayotgan hollarda ham biror asorat yoki boshqa bir dard qo'shilib qolishidan u boshqacha tus oladi. Kasallikning tugashi, ya'ni oxirgi tuzalish davri birdan boshlanishi yoki asta-sekin o'tishi mumkin. Ayni vaqtida odam butunlay sog'ayib ketadi yoki biror a'zosida Kasallikdan anchagacha yo'qolmaydigan asorat qoladi; ba'zan Kasallik butunlay yo'qolmasdan, vaqt-vaqt bilan qo'zib turadigan surunkali xilga aylanadi. Kasallikning asorat qoldirmay, esonomon o'tib ketishi ko'pincha unga qarshi o'z vaqtida davo qilish hamda vrachning hamma buyurganlarini bekamu ko'st bajarishga bog'liq.

Shuning uchun odam o'zini andek nosog' sezganida darhol vrachga borishi kerak. Zamonaviy tibbiyat bemor ahvoliga juda jiddiy qarab, uni kompleks tarzda tekshiradi; Kasallikning kelib chiqish sabablari va sharoitlari, avj olib borish mexanizmlari, qanday belgilar bilan o'tishi, organizmning Kasallikka qarshi qanday kurashishi, himoya va moslashuv reaksiyalarining qonuniyatlarini o'rganadi; olingan

natijalarga qarab, Kasallikni aniklash, davolash va uning oldini olish usullarini ishlab chiqadi. Har bir bemorga individual, ya’ni kasalligining xili, organizmning holati va boshqa ko‘pgina xususiyatlarga qarab davo qilinadi.

XULOSA

Kasalliklar vaqtida hayot faoliyati rivqjlanishi va tashkil etilishi buzilishlarining xilma-xil neyrogen, gumoral, sistemali, organ, hujayra, hujayragacha bo’lgan va metabolik mexanizmlari mayjud. Kasalliklardagi bunday xilma-xil patogenetik reaksiyalar ichida boshlovchi, ishga tushiruvchi shikastlanish mexanizmi — patogenezning boshlovchi zvenosi farqlanadi. Patogenez bir butun holda voqealar darajasining vaqt o’tishi bilan o’zgarib turuvchi zanjiri sifatida namoyon bo’ladi. Bunday holatlar sabab va oqibat bog’lanishlari bilan birlashgandir. Patogenezning boshlang’ich zvenosi (sabab) turli xildagi patogenetik zvenolar guruhini o’z ichiga oladi (oqibat) va ular o’z navbatida sababchi bo’lib, yangidan yangi kasallik zvenolarini (oqibatlarini) keltirib chiqaradi. Hayot faoliyatları buzilishlarining og’irlashishi bilan kechuvchi kasalliklar rivojlanishi asosida sabab — oqibat bog’lanishlarining muhim shakllaridan biri, patogenezning yaramas doira deb ataladigan xili yotadi. Ushbu mexanizm mohiyati shundan iboratki, birlamchi yuzaga kelgan moddalar almashinuvi va tuzilish shikastlanishlari bir qator boshqa buzilishlarni o’z ichiga olib birlamchi buzilishlarning kuchayishlari bilan birqalikda ketadi.

MORFOGENEZ. Kasallik jarayonida organizmda bir vaqtning o’zida ham funksiya, ham tuzilish o’zgarishlari vujudga keladi, chunki ular funksional — tuzilish birligiga ega. Funksiya faqat ma'lum material substrati asosida, ma'lum tuzilish yoki tuzilishlar asosida amalga oshiriladi. Ayni vaqtida material substrat sarilanadi, tuzilish parcha-Imadi va funksiya amalga oshirilmay qoladi. Organizmda iuzilish va funksianing o’zaro bog’liqligini hayot faoliya-tining molekulyar, hujayragacha bo’lgan va hujayra darajasida ayniqsa yaqqol namoyon bo’ladi. Hujayralardagi eng nozik jarayonlarning tekshirish qobiliyatiga ega bo’lgan zamонави morfologik usullar kasalliklarning klinik belgilari paydo bo’lmadan oldingi, shuningdek sof funksional o’zgarishlar bilan kechuvchi kasalliklar (masalan ruhiy kasalliklar) deb atalmish

kasalliklarda, kasalliklarning eng erta bosqichida yuzaga keluvchi hujayra ichi o'zgarishlarini aniqlash imkoniyatini yaratadilar. Shuning uchun ham ta'kidlash mumkinki, faqat «funksional» o'zgarishlar bilan kechuvchi kasalliklar yo'q. Shunday kasalliklar borki, ularda kechuvchi nozik morfologik o'zgarishlarni hozirgi zamon tekshirish usullari bilan aniqlab bo'lmaydi. Kasalliklar morfogenezini tekshirish uning mohiyatini, bosqichlarini, hayot faoliyati buzilishlarining qaytar yoki qaytmas ekanligini, kasallikdagi moslashuv — kompensator o'zgarishlarning morfologik asosini ochib beradi. Shuningdek davolashning foydasiga (effektiga) baho berishni aniqlash imkoniyatlarini beradilar. Kasalliklarda faqat shikastlanish mexanizmlari (patoge-netik mexanizmlar) mavjud bo'libgina qolmay, kasallik chaqiruvchi omil ta'siri vaqtidan boshlab uning tugallanish davrigacha himoya, tiklanish va moslashuv mexanizmlari mavjud bo'ladi. Himoya mexanizmlari kasallik chaqiruvchi agent tafsir qilishi zahoti boshlanadi va ko'pincha bu kasallik kelib chiqishining oldini olib qoladi. Agar shikastlanish paydo bo'lib, kasallik boshlangan bo'lsa, moddalar almashinushi, tuzilish va funksiya buzilishlari tiklanish mexanizmlari: qon yo'qotishda qonning qayta taqsimlanishi va eritropoezning rag'batlantirilishi, jigar shikastlanishida jigar hujayralarining kuchli regenerasiyasi va funksiyasining tiklanishi, miya asab hujayralarida hujayra ichi regenerasiya hisobiga harakatning qayta tiklanishi va hokazolar kabi tiklanish mexanizmlari bo'lishi mumkin. Agar qandaydir funksiya yo'qotilgan bo'lsa, bemor organizmida yo'qotilgan funksiyani ozmi, ko'pmi miqdorda biri o'rmini bosuvchi moslashuv mexanizmlari ishga tushiriladi. Juft organlardan biri ishdan chiqsa, qolganining giperfunksiyasi hisobiga (funksiyasining ortishi) moslashuv amalga oshiriladi. Juft bo'limgan organda, masalan yurakda, infarkt vaqtida ishdan chiqqan mushak qismining ishi miokardning saqlanib qolgan bo'lagi hisobiga moslashuvi mumkin. Shuningdek kompensasiya turli fiziologik sistemalar hisobiga ham bo'ladi. o'pkaning funksional yetishmovchiliklari to'qima-larning kislород bilan ta'minlanishi qon aylanishi, eritropoez va moddalar almashinushi faollashishi hisobiga saqlab turiladi. Organizmni ko'rib o'tilgan shikastlanishlarga

bo'lgan kurashish mexanizmlari kasalliklarning ajralmas komponentlari (tarkibiy qismlari) hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев Н. Каримов Ё. Патофизиология. - Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998.
2. Патологическая физиология: Под ред. А. Д. Адо, Л. М. Ишимовой. 2-е изд., перераб. и доп. - М.: «Медицина», 1980.
3. Патологическая физиология. Под ред. чл.-корр. АМН СССР Н. Н. Зайко. 2 -е изд., перераб. и доп. -Киев: «Вища школа», 1985.
4. Патологик физиология. Под редакцией Н.Н. Зайко и Ю.В.Быця. - 4-е изд. Москва. «Мед-пресс» - ияформ». - 2007 г.
5. Патологик физиология. Под редакцией А.Д. Адо, М.А. Адо, В. И. Пыцкого и др. - Москва: «Триада - X» 2002 г.
6. Русинов О.А. Патологик физиологиядан амалиёт дарслари учуй кулланма. -Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2004.
7. О.А.Патологик физиологиядан амалиёт дарслари учун фллланма. -Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2004.